

**YANGI O'ZBEKISTON VA UCHINCHI RENESANS POYDEVORINI
YARATISHDA TA'LIM-TARBIYANING AHAMIYATI**

*Shukurov Xursan Gadoyevich
Norova Intizor Haqberdiyevna
matematika fani o'qituvchilari,
BuxMTI akademik litseyi*

Annotatsiya: Yoshlar huquqi, avvalo, ularning tinch va sog'lom yashashi hamda ta'lism olishga bo'lgan to'laqonli huquqi sifatida e'tirof etiladi. Shuning uchun unib-o'sib kelayotgan yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishi sifatli va mukammal ta'lism olishini ta'minlash davlatimiz, hukumatimiz uchun hamisha dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqida juda ko'plab muhim masalalarga jahon hamjamiyatining e'tiborini qaratdi. Shulardan biri "Yoshlar huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiya"ni qabul qilinishining taklif etilganligidir. Ma'lumki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lism va tarbiyadir. Kelajak, yurtimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda ta'lism tizimi va yoshlarga berilayotgan tarbiya bilan chambarchas bog'liq. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'zining 2020-yil 30-sentabrdagi "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagি nutqida buyuk yunon olimi Aristotelning, "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", [1] degan so'zlarini keltirdi. Aristotel o'z qarashlarini miloddan avvalgi davrlardayoq aytib o'tgan. Demak, bizning fikrimizcha, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lism va tarbiya masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Xususan, aynan bizning ona zaminimizda ham ota-bobolarimiz qadimdan millat ta'lism-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratishgan. O'rta Osiyo va Sharqning buyuk mutafakkirlari Najmuddin Kubro, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr al Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriyning asarlaridagi umumbashariy tafakkur, komil inson barkamolligiga bag'ishlangan tarbiyaviy o'git-maslahatlari, tijorat, mulkdorlik hunari sirlaridan iborat yaxlit milliy-umuminsoniy qadriyatlar shakllanishi, ong va qarashlardagi merosimizning boyishida alohida o'rin tutganligini ko'ramiz. Masalan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ijodida juda ko'p insoniy fazilatlar vatanparvarlik, sadoqatlilik, halol mehnat, tijorat, savdo ishlari ma'qullanadi, tovlamachilik va chayqovchilik qattiq qoralanadi hamda bu dunyoda insonlar qanoatli bo'lib yashashga undaladi: Hirsdin kechgil, ul

g‘amedurkim, Haddu g‘oyat anga emas paydo. Tut qanoatkim, ul erur mole ki, nihoyat anga emas paydo. Ya’ni, Hirsu havasdan kech, chunki u behad va oxiri yo‘q g‘amdir. Qanoatni mahkam tutki, u nihoyasi yo‘q moldir, [2; 92] deyiladi. Hukumatimiz jamiyatda keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar orqali O’zbekistonda yangi Uyg’onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni asosiy maqsad qilib qo’ydi va bu borada amalga oshiriladigan vazifalarning mazmun – mohiyatini belgilab berdi. Bizning fikrimizcha, yangi O’zbekistonni va Uchinchi Renessansni yaratishda avvalo uning mohiyatini xalqimiz, yoshlarimiz tushunib yetishi lozim. Bu vazifani amalga oshirishda esa ta’lim tizimining alohida o’rni bor. Xo’sh, Uchinchi Renessans nima? O’zbekiston xalqining ko’p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda taraqqiyot cho’qqilarini zabit etishning mashaqqatli bosqichlarini ko’rish mumkin. Bu bosqichlarda davlatimizning shakllanishi, jamiyatda ilmu – fan, san’at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o’z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga katta hissa qo’shishdek iftixonli jarayonlar gavdalanadi. O’zbekiston tarixinining birinchi Renessansi – Somoniylar davriga to’g’ri kelib, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning ilmiy – falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi bo’ldi. Ijtimoiy sohaning har tomonlama rivojlanishi, jamiyatdagi munosabatlarning muayyan tartib – tamoyillar asosida qurilishi, shaharu viloyatlarning iqtisodiy – madaniy rivojlanishi, ilmu ma’rifatning markazlashuvi singari muhim jarayonlar o’rta asrlarda yurtimizda davlatchilikning o’ziga xosligini belgilovchi tamoyillardir. Ikkinchi Renessans – Amir Temur va temuriylar davriga to’g’ri kelib, nafaqat Movarounnahr, balki butun Markaziy Osiyo o’lkalari o’z taraqqiyotining yangi pog’onasiga ko’tariladi. Bu davrda davlatchilik asoslari takomillashib, shaharsozlik va me’morchilik avj oldi, xalqaro savdo va diplomatik aloqlalar jadallahdi. Shuningdek, bu davrda fan, madaniyat va san’at sohalarining rivojlanishi hamda tafakkur doirasining yuksalishi namoyon bo’ladi. O’zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqimizning ulug’vor qudrati jo’sh urgan hozirgi zamonda O’zbekistonda yangi bir uyg’onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda”,[3] - degan so’zi yangradi. Darhaqiqat, shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro’y berayotgan yuksalish jarayonlari o’zini barcha sohalarda namoyon etmoqda. Binobarin, mustaqillikka erishgan yillarimizning ilk davrida biz o’zimizning milliy o’zligimizni anglash, boy tarixiy, ma’naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun – mohiyati mag’zini chaqish va uni ro’yobga chiqarishga intilgan bo’lsak, endilikda xalqimiz jipslanib, “milliy tiklanishdan – milliy yuksalish” g’oyasini sobit qadamlik bilan amalga oshirishga kirishdi. Bu davrda jamiyatimizda ijtimoiy tafakkurning yuksalish tendensiyasi qaror topishi, unga xos ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarning mujassamligi e’tirof etilmoqda. Milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlar uyg’un bo’lgan

ijtimoiy tafakkur – mamlakatimiz barqaror rivojlanishining o’zan mezon va mustahkam poydevoriga aylanmoqda. Jahon ilmiy hamjamiyatimizda e’tirof etilishicha, O’zbekiston qadimdan madaniyat va sivilizatsiya barpo etuvchi zamindar. Darhaqiqat o’rta asrlarda O’zbekiston hududida vujudga kelgan ilmiy – ma’naviy yutuqlar Yevropadagi ilmu fanga asos bo’ldi. Muhammad al – Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy kabu ulug’ mutafakkirlarimizning beqiyos ilmiy – falsafiy risolalari dunyoviy bilimlarni rivojlantirish va takomillashtirish bilan bir qatorda, nafaqat o’z zamonasi, balki keyingi yuz yilliklarga tegishli umumjahon tamaddunining yuksalishiga asos soldi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning hozirgi davrni milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari de e’lo qilishining zamirida qat’iy ishonch va chuqr hikmat mujassam. Negaki, keyingi 10 yilligimiz yuksalish va taraqqiyot davri bo’lishi muqarrar. Zero, so’nggi yillarda qabul qilingan va qilinajak qonunlar, farmon va qarorlar, amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar taraqqiyotning yangi ufqlariga asos bo’ladi, deb ishonishimiz lozim va bu yo’lda har birimiz tolmay va mashaqqat ila harakat qilmog’imiz lozim, deb o’ylaymiz. Ulug’ shoirimiz Mavlono Furqat ilm-ma’rifatni “ko’ngillarning sururi, ko’rar ko’zlarning nuri”,[4] deb ta’riflagan. Zero, “Eng katta boylik – bu aql – zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir”[5].

Zamonaviy ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish orqali yoshlarni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, atrofda kechayotgan voqeal-hodisalarga nisbatan mas’uliyat ruhida tarbiyalashni kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. O’qituvchi va murabbiylar kuniga bag’ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. “Xalq so’zi” gazetasi. 2020 yil 30 sentabr.
2. Alisher Navoiy. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar. Nashrga tayyorlovchilar A.Tilavov, I.Saydullaev. - T.: «Sano-standart», 2016. 92 – bet.
3. O.Abdullayeva. O’zbekistonda ilk uyg’onish – Uchinchi Renessans. 2020.
4. Sh. Mirziyoyev. O’qituvchi va murabbiylar kuniga bag’ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. “Xalq so’zi” gazetasi. 2020 yil 30 sentabr.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil. 25 yanvar. O’zbekiston Milliy axborot agentligi. <https://uza.uz> post